

PUL-KREDIT SIYOSATINING 2026-2028 YILLAR DAVRIGA MO'ljALLANGAN ASOSIY YO'NALISHLARI

Qisqa tavsif


Dekabr 2025

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan "Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" e'lon qilindi. Unda pul-kredit siyosatining joriy holati haqida batafsil ma'lumot berilib, ssenariylar asosida 2026-2028-yillarga mo'ljallangan makroiqtisodiy prognozlar va mos ravishda pul-kredit siyosati choralari hamda pul-kredit siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari keltirilgan.

Markaziy bank har qanday vaziyatda ham pul-kredit siyosatini narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyatsiyani 5 foizli targetigacha pasaytirishga qaratadi.

2025-yildagi iqtisodiy rivojlanish va pul-kredit siyosati qarorlari

2025-yil davomida O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror va yuqori sur'atlarda o'sishda davom etdi. Investitsion faollikning kuchayishi, aholi daromadlarining oshishiga mos ravishda yuqori iste'mol talabi va eksportning o'sishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiya faoliyatining yaxshilanishi ko'p jihatdan xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi va kreditlar hajmining jadal o'sishida o'z aksini topdi.



Bundan tashqari, ushbu faollik xizmatlar, sanoat va qurilish sohalari sezilarli rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, budget daromadlari budget xarajatlariga qaraganda tezroq o'sdi. Bu esa davlat budjeti ko'rsatkichlarining muvozanatli va maqsadli parametrlar doirasida bo'lishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.


Buning natijasida yil boshidan iqtisodiyotdagi yalpi talab barqaror darajada shakllandi. Ammo, ayrim iste'mol tovarlari bo'yicha import taklifi bilan bog'liq xatarlar 2025-yilning I choragida inflyatsiya darajasining yuqori bo'lishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, inflyatsion kutilmalarni oshirdi. Bunga javoban Markaziy bank pul-kredit siyosatini qat'iyashtirishga qaror qildi va mart oyida asosiy stavkani 0,5 foiz bandga oshirib, 14 foiz darajasida belgiladi.

Shu yilning III choragida nisbatan qat'iy pul-kredit siyosati va milliy valyutaning mustahkamlanishi tufayli inflyatsion bosimlar va kutilmalarning pasayishiga erishildi.


Mazkur jarayonlarning iqtisodiy faollikning yuqori darajasi va talab tomondan bosimlar sharoitida davom etishini ta'minlash maqsadida pul-kredit sharoitlari nisbatan qat'iy saqlab qolindi.

Inflyatsiya yil yakuni bo'yicha 8 foizga yaqin, yalpi ichki mahsulot o'sishi esa 7-7,5 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Tarmoqlar kesimida YAIM o'sishi dekompozitsiyasi, kumulyativ, foizda



Tarmoqlarning iqtisodiy o'sishni o'tgan yilning mos davriga nisbatan tezlashishiga qo'shgan hissasi, foizda



2026-2028-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognozlar

2026-2028-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli prognozlar va shunga mos ravishda kelgusi yillar uchun pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari tashqi va ichki sharoitlarning ehtimoliy o'zgarishlari bo'yicha kutilmalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan asosiy makroiqtisodiy ssenariy asosida tayyorlandi.

Tashqi sharoitlar tomondan, jahon iqtisodiyotida saqlanib qolayotgan noaniqliklar tufayli global o'sish nisbatan past bo'lib qolishi, inflyatsiya bo'yicha target ko'rsatkichlarga erishish uzoqroq davom etishi, valyuta bozorlarida keskin o'zgarishlar kuzatilmaligi, oltin narxlari nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi prognoz qilinmoqda.

Ichki sharoitlar tomondan, asosiy ssenariy:

- yalpi talabning bosqichma-bosqich barqarorlashuvini;
- kreditlar o'sishining me'yorlashuvini;
- mehnat unumdorligi oshishiga mos ravishda ish haqining oshishini;
- pul o'tkazmalarining o'sishi o'rta muddatli trayektoriyaga qaytishini;
- investitsiyalarning barqaror oqimini va o'rta muddatli istiqbolda YalMning 3 foizidan oshmaydigan fiskal taqchillikni nazarda tutadi.

Asosiy ssenariy bo'yicha yalpi ichki mahsulotning real o'sishi 2026-yilda 5,5-6,5 foizni, 2027-2028-yillarda 6-7 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Markaziy bank o'z e'tiborini asosiy ssenariy bo'yicha ham, ehtimoliy shoklar yuzaga kelganda ham 2027 yakuniga qadar inflyatsiyaning 5 foizlik targetiga erishishga qaratadi.

Inflyatsiya darajasining 2026-yil oxirigacha 7 foizgacha pasayishi kutilmoqda. Tashqi inflyatsion bosimlar yumshashi va ichki inflyatsion kutilmalarning mo'tadillashishi sharoitida O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2027-yilda 5 foizlik targetga yetishi va 2028-yildan boshlab ushbu ko'rsatkich atrofida shakllanishi kutilmoqda. Ushbu prognozlar xususiylashtirish jarayonlarining davom etishi, ichki va tashqi investitsiyalar hajmi barqaror o'sishda davom etishi va iqlim bilan bog'liq xavflar kuchaymasligi haqidagi qararlarga asoslanib ishlab chiqilgan.

Ehtimoliy risklar va shoklar

Makroiqtisodiy ssenariylarni ishlab chiqishda har bir risk makroiqtisodiy vaziyatga ta'siri nuqtai nazaridan alohida tahlil qilindi.

Inflyatsiyaning o'sishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan asosiy shoklar qatoriga:

- hamkor davlatlar valyutalarining keskin qadrsizlanishi;
- oltin narxlarining sezilarli darajada pasayishi;
- import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari jahon narxlarining sezilarli darajada oshishi;
- fiskal taqchillikning kengayishi;
- energiya ta'minotidagi uzilishlar;
- ob-havo va iqlim sharoitlarining yomonlashuvi;
- moliyaviy inklyuzivlik rivojlanishi tufayli iste'mol talabining kuchayishi va tartibga solinadigan narxlarning kutilayotgan darajadan sezilarli oshishi kiradi.

Bundan tashqari, inflyatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan shoklar qatoriga oltin narxining keskin oshishi, xususiylashtirish jarayonlarining tezlashishi, investitsiya va raqobat muhitining yaxshilanishi kiradi. Ushbu shoklar yuzaga kelgan taqdirda pul-kredit siyosati o'rta muddatli istiqbolda inflyatsiyaning 5 foizlik targetigacha erishish maqsadidan kelib chiqib amalga oshirib boriladi.

Pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish va taklif omillari

Shuningdek, hujjatda kelgusi yillarda pul-kredit siyosati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha bir qancha rejalar belgilangan. Inflyatsiyaning kelgusida ham past va barqaror bo'lishini ta'minlash uni keltirib chiqaruvchi taklif omillarini bartaraf etishni taqozo etadi. Inflatsiyani barqaror va nisbatan past darajada ushlab turish uchun ichki bozorlarda raqobatni kuchaytirish, savdo ochiqqligini oshirish maqsadida tarif va notarif cheklavlarni bosqichma-bosqich qisqartirish, import konsentratsiyasini pasaytirish, energiya ta'minoti barqarorligiga erishish orqali tovar va xizmatlarning yuqori taklifini ta'minlash hamda transport infratuzilmasini yetarli darajada rivojlantirish talab etiladi.

Bank sektorida raqobatni kuchaytirishga qaratilgan makroprudensial choralar ularning umumiy pul-kredit sharoitlariga ta'siri nuqtai nazaridan baholanadi. Davlat korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirishni jadallashtirish, maqsadli va imtiyozli kreditlash amaliyotlarini qisqartirish, kapital bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar pul-kredit siyosatini samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi iqtisodiyot tarmoqlari salohiyati va unumdorligini oshiradi, bu esa o'z navbatida yuqori iqtisodiy o'sish bilan birga past va barqaror inflyatsiya darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

“Pul-kredit siyosatining 2026 yil va 2027-2028 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari” to'liq matni bilan [quyidagi havola orqali tanishishingiz mumkin.](#)